

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI YARATISH MAMLAKAT RAVNAQI GAROVIDIR

S.Sultonov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Buxgalteriya hisobi ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

J.Aliyev

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Buxgalteriya hisobi ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

O.N.Xaitov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali assistenti

Annotatsiya:


Ushbu maqola iqtisodiyotni rivojlantirishni investitsiyalarsiz tasavvur qilish bir muncha mushkul masala hisoblanadi. Mamlakatga kiritilgan investitsiyaning ijobiy natijasi xox u ichki investitsiya bo‘lsin, xox tashqi quyidagilarda aks etadi: ishlab chiqarishni rivojlantirishga turtki bo‘ladi; ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalrini rivojlantirishga va ular o‘rtasida raqobatni kuchaytirishga; qo‘shimcha yangi ish o‘rinlarini tashkil etilishiga va o‘z o‘rnida aholini ish bilan bandligini oshirishga; aholi daromadlarini ortishiga; eksportni kengaytirish, eksportga yo‘naltirilgan loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari paydo bo‘lishi, qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yish.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, qimmatli qog‘ozlar, ijtimoiy sohalar, milliy iqtisodiyot, xo‘jalik subyektlari, kapital, fond bozori, investitsiyalar, aholining shaxsiy jamg‘armalari

Iqtisodiyotni rivojlantirishni investitsiyalarsiz tasavvur qilish bir muncha mushkul masala hisoblanadi. Mamlakatga kiritilgan investitsiyaning ijobiy natijasi xox u ichki investitsiya bo‘lsin, xox tashqi quyidagilarda aks etadi: ishlab chiqarishni rivojlantirishga turtki bo‘ladi; ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalrini rivojlantirishga va ular o‘rtasida raqobatni kuchaytirishga; qo‘shimcha yangi ish o‘rinlarini tashkil etilishiga va o‘z o‘rnida aholini ish bilan bandligini oshirishga; aholi daromadlarini ortishiga; eksportni kengaytirish, eksportga yo‘naltirilgan loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari paydo bo‘lishi, qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yish.

Shunday ekan, mamlakatimizda «Barqaror rivojlanish maqsadlari»ni mamlakat ehtiyojlariga moslashtirish uchun jiddiy qiziqish va intilishlar natijasi sifatida, 2017- 2021 yillar uchun

O‘zbekistonning harakatlar strategiyasi natijalari va hozirda amalga oshirilayotgan «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»ni ko‘rsatish mumkin. Ushbu strategiyada belgilangan maqsadlarga erishish uchun bir qancha vazifalar belgilangan, jumladan (1-rasm):




1-rasm. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar³

Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko‘rish belgilangan⁴.

2022-yilda 269,9 trln. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, 2021-yilga nisbatan 100,9 foizni tashkil etdi. Asosiy kapitalga investitsiyalarning tarkibida 59,1 foiz yoki 159,6 trln. so‘m investitsiyalar jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 40,9 foiz yoki 110,3 trln. so‘m moliyalashtirildi. Shuningdek, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 41,5 trln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 228,4 trln. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirildi⁵. Demak bu ko‘rsatkichlarning bari mamlakatimizda nisbatan qulay investitsiya muhiti yaratilganidan dalolat beradi.

³ PF-60-son asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son, 28.01.2022 yil.



2-rasm. Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar⁶

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turganidek mamlakatimiz YAİM va asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar ham o'sish dinamikasiga ega. Ya'ni 2017 yilda YAİM 317476,4 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa 2022 yilga kelib qariyb 2,7 marotaba o'sib 888341,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar 2017 yilda 72155,2 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2022 da 269857,5 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2017 yilga nisbatan 3,7 barobarga ko'payganini ko'rish mumkin.

Bugungi kunda O'zbekistonda qulay investitsiya muhitini muntazam ravishda yaxshilab borishni ta'minlash ustuvor vazifadir. Bunda davlatning asosiy vazifasi kapital jalb qilish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va uning jozibadorligini oshirish bilan izohlanadi.

Biroq mamlakatimizga investitsiyalar oqimini to'xtatib qo'yayotgan qator omil va sharoitlarning ba'zilari sifatida quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin: bank-kredit tizimining takomillashmagani; sarmoyadorlar huquqlarining zaif himoyasi va yetarli darajada samarali bo'lmagan sud tizimi; ma'muriy-byurokratik to'siqlar (ko'plab xorijiy kompaniyalar o'z faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya va ruxsat olish tartib- qoidalaridan norozi); past investitsiya reytingi.

Bugungi kunning asosiy masalasi ichki va tashqi investitsiyalarga yanada qulay investitsiya muhitini yaratgan holda ularni oqimini ko'paytirishdir. Shunday ekan, investitsiya muhiti barqarorligini ta'minlash uchun, birinchi navbatda, investitsiya risklari sug'urtasini yoki himoyasi tizimini keng rivojlantirish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni to'la ma'noda amal qilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Sababi har bir mamlakat iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog'liqligini deyarli har bir mutaxassis va xo'jalik yurituvchi sub'ekt yaxshi anglaydi.

⁵ <https://stat.uz/uz/default/press-relizlar/17505-2022>

⁶ Muallif tomonidan tayyorlandi, stat.uz ma'lumotlari asosida.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida qulay investitsiya muhitini shakllantirishni yanada takomillashtirish va mamlakat iqtisodiyotining investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish maqsadida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning bozor mexanizmlaridan keng foydalanish, ya'ni investitsiyalarni fond bozori orqali, venchurli moliyalashtirish, lizing, sinditsiyalashtirilgan kreditlar hisobiga moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari Yangilangan Konstitutsiyamizdagi 68- moddaga ko'ra yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkinligi belgilab qo'yilgani investorlarda o'z faoliyatini uzoq muddatga mo'ljallab olib borishiga kafolat beradi. Davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlaydi. Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli ekanliklari: birinchidan, tadbirkorlarni qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish haqli ekanligini belgilanishi, daromad olish faoliyatining asosiy maqsadi bo'lgan tadbirkorlar uchun iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida faoliyat yuritish imkoniyatini taqdim etadi; ikkinchidan, o'z faoliyat yo'nalishini mustaqil ravishda tanlash huquqi tadbirkorlarga o'z biznes strategiyalarini boshqa shaxslarni, davlat organi va uni mansabdor shaxslarining o'zboshimchalik bilan aralashuvizis o'z xohishi va manfaatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqish va amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son.
2. Qudratov Sh.G'. O'zbekiston Respublikasi fond bozori va uning rivojlanishiga ta'sir qilayotgan asosiy muammolar. Mejdunarodniy nauchniy jurnal № 2 (100), chast 2 «Nauchniy impuls» sentyabr, 2022. S. 688.
3. Sul'tonov Sh.N. O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish yo'llari. Iqtisodiyot va ta'lim / 2022-yil 5-son.
4. Nurmuhamedov A.A. Nurmuhamedova B.I. Fond bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligi. "Skienke and Edukation" Skientifik Journal. / ISSN 2181-0842 March 2023 / Volume 4 Issue 3